

QO'G'IRCHOQ TEATRI SAHNASIDA TARIXIY SIYMO TALQINI (QASHQADARYO VILOYAT QO'G'IRCHOQ TEATRI MISOLIDA)

U.Musinov

ulugbek.musinov1995@mail.ru

Ilmiy rahbar: S.M.Qodirova

O'zDSMI

Annatsiya: Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyat davlat qo'g'irchoq teatrida sahnalashtirilgan "Tafakkur sohibi - Zaxiriddin Muhammad Bobur" spektakli haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ilm, tarix, madaniyat, san'at, qo'g'irchoq teatri, tarbiya, rejissor, aktyor, rassom, ta'lim

INTERPRETATION OF A HISTORICAL CHARACTER ON THE STAGE OF THE PUPPET THEATER (EXAMPLE OF THE PUPPET THEATER OF KASHKADARYA REGION)

U.Musinov

ulugbek.musinov1995@mail.ru

Scientific supervisor: S.M.Kadirova

UzSIAC

Abstract: The article tells about the spectacle "The Master of Thought - Zahiriddin Muhammad Babur", staged at the Kashkadarya Regional State Puppet Theater.

Keywords: spirituality, science, history, culture, art, puppet theater, education, director, actor, painter, education

"...Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir",¹ deganida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev naqadar haq edi. Bugun millatning kelajagini belgilab beradigan, chet kirib keladigan yot g'oyalarga qarshi turadigan kuch ilmu ma'rifat va ma'naviyatdir. Tarix esa kelajak avlodning tomirida oqayotgan qonning asl mohiyatini belgilab beradi.

¹ SH.M.Mirziyoyev. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". T.: "O'zbekiston", 2017 y, 27-bet.

So'nggi yillarda respublikamiz qo'g'irchoq teatrlarida tarixiy mavzudagi asarlarni sahnalashtirish an'anaga aylangani quvonarli hol. Farzandlarimizga tarixni o'rgatish nechog'lik zavqli bo'lsa, mas'uliyati ham kam emas. Shunday vazifani yelkasiga ortgan Qashqadaryo viloyat qo'g'irchoq teatri 2019-yilning 26-iyul kuni Zaxiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Muhammad Xaydar Mirzoning "Tarixi Rashidiy", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", Durbek Qo'ldoshevning "Imperatorning tug'ilishi" asarlari asosida Karomat Dilmonov inssenirovkasi, G'ayrat Xamroyev rejissorligidagi "Tafakkur sohibi - Zaxiriddin Muhammad Bobur" spektaklini sahnaga olib chiqdi. Ushbu spektakl haqida teatr direktori Elbek Eshmurodov shunday degan: "Dastlab Zahiriddin Muhammad Bobur tili, asar g'oyasi yosh tomoshabinlar uchun og'irlik qilmasmikan, degan hadik bor edi bizda. Shu sababli asar matnini bir qadar soddalashtirdik, sahna dekoratsiyalarini yorqin, e'tiborni tortuvchi, bir qarashda tushunarli bo'lgan jihozlar bilan boyitdik. Qolaversa, asar voqealarini hikoya qilib beruvchi roviylarning nutqini kengaytirdik. Natija esa biz kutganimizdan ham a'lo bo'ldi".²

Spektakldan ko'zlangan bosh maqsad yosh tomoshabinlarni shoh va shoir Bobur hayoti bilan tanishtirish bo'lgan. Spektaklda Boburning quroli uning tafakkuri qilib olib chiqilgan. Barcha yutuqlarida ilm - u urfonga oshuftaligi asos bo'lgani ko'rsatiladi. Asosiy voqealar Hindiston, Andijon va Samarqandda bo'lib o'tadi. Musofirlikda ko'rgan qiyinchiliklarni yengishida vatanga bo'lgan mehri malham bo'ladi. Sahnalashtiruvchi rassom Mirzohid Mamatov dekoratsiyalarni voqealar rivojiga hamohang - o'zbek yoki hind qadriyatlariga mutanosib tarzda jixozlagan. Ayniqsa asarda dialoglarning she'riy tarzda ijro etilishi tomoshabinlar e'tiborini tortgan. Nega deganda bola uchun so'zlar ohangi, musiqiyliigi o'ta muhim ahamiyata ega. Masalan Cho'pon yigit va Bobur suhbatini olaylik:

Cho'pon yigit: Shoir? Shoshma, shoshma. Kecha Oqsuv bo'yidag'i bazmda bir qo'shiq tinglab edim, chamamda shundog' so'zlari bor erdi.

Bobur o'zingni o'rgata ko'r yorsizki men
Istab jahonni muncha qilib yor topmadim.
Shoirlicing rost bo'lsa biror bir bayt aytingchi.
Bobur: Xo'p unda tingla,
Ne xesh meni xushlaru ne begona,
Ne g'ayr rizo mendinu ne janona.
Har nechaki yaxshilikda qilsam afsun,
Xalq ichra yomonlik bilan men afsona.

Bosh qahramon Zaxiriddin Muhammad Bobur rolini aktyor Botir Meylimurodov, uning bolaligini esa Muxriddin To'yliyev ijro etgan. Bo'burni ijro etish jarayonida aktyorni biroz qo'rquv va hayajon bosgani tabiiy. Bobur bolaligini o'ynagan aktyor

² Театр журналы, 2019 йил 5 сон 42 бет

Muxriddin To‘lyiyev ijrosi navqiron Bobur ijrosidan ancha pishiq va mukammal o‘ynalgan. Gap shundaki, Boburning bolaligidagi samimiylik va beg‘uborlik spektaklga o‘zgacha ruh bergan. Shuningdek spektaklda Ota o‘roqchi, Mardonali, Hindubek, Abdulloh kabi obrazlar ham mavjud. Aktyor Ozod Abduholiqov ijro etgan Ota o‘roqchi obrazi va uning Boburni dehqonchilik va kurashda sinab ko‘rishi spektaklga quvnoq va ko‘tarinki kayfiyat baxsh etgan. Shuningdek aktyor Doston Allamurodov ijro etgan Boburning eng yaqin do‘sti va mulozimi Hindubek obrazi ham samimiy. Lekin aktyordagi sheva masalasi sustligi har qanday teatrshunosning e‘tiborini tortishi turgan gap albatta. Spektaklda Cho‘pon, Xoja Axror Valiy rolini ijro etgan aktyor Qarshiyev Shaxzod hamda aktrisa Dilafruz Tog‘ayeva gavdalantirgan obrazlar orqali Zaxiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati yanada teranroq ochilgan.

Teatr arboblari uyushmasi a‘zosi, teatrshunos Esonboy O‘rinov spektakl haqida: “Sahna asari, haqiqatdan, qo‘g‘irchoq teatri qonun - qoidalariga asoslangan. Spektakl to‘liq tarixiy faktlarga tayangan. Aktyorlar ijrosi, dekoratsiyalar Bobur yashagan davr ruhiyatiga mos. Ammo qo‘g‘irchoqlarni yasashda biroz kamchilikka yo‘l qo‘yilgan. Ya‘ni o‘zbekning ham, hindning ham yuzi bir xil yasalgan. Boburning ko‘zi ham ancha qaxrli, shoirdan ko‘ra podshoh taassurotini qoldiradi tomoshabinda. Bu kamchiliklar bartaraf etilsa, teatr repertuari yaxshi bir asar bilan boyiganini aytsa bo‘ladi”,³ - degan fikrlarni bildirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev.SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz, T.:O‘zbekiston, 2017. 1 - tom.
2. To‘laxo‘jayeva M. Teatr haqida g‘amxo‘rlik. // “Teatr”, 2001 yil, 6 - son
3. To‘laxo‘jayeva M. XX asr teatr islohotlari. // “Jahon adabiyoti”, 2014 yil, 1 - son
4. To‘rabekova R. Ma‘naviy qadriyatlar va teatr. // “Teatr”, 2007 yil, 5 - son
5. Rizayev O. XXI asr o‘zbek teatri: muammolar va rejalar. // “Teatr”, 2007 yil, 5 - son.
6. Erkin Samandar. Zamon, sahna, inson. // “Teatr”, 2002 yil, 4-son.
7. Sharif Rizo. Xalq san‘atkorlari. Guliston, 1940. № 4. 25-28 betlar.
8. M. Qodirov. “Boburnoma”ni varaqlaganda. Toshkent haqiqati, 1995. 17 iyulь.
9. M. Qodirov. O‘qni uzuk ko‘zidan o‘tkarur edi. Sport, 1993. 3 dekabrь.
10. M. Qodirov. Maydon aro aylanar shitob. Sport, 1994. 27 may.

³ Қаранг, ўша манба